

**Muddatli omonatning asosiy shartlari to'g'risidagi  
AXBOROT VARAQASI**

Tijorat bankining nomi, rasmiy veb-sayti, telefon raqamlari	“Davr bank” XATB <a href="http://www.davrbank.uz">www.davrbank.uz</a> +99871 207 40 40 Qisqa raqam: 1284
---	---

**1-bo'lim. Omonatning asosiy shartlari**

1. Omonat nomi	BAXOR
2. Omonatning valyutasi	Milliy valyuta so'm
3. Omonat bo'yicha yillik foiz stavkasi (agar omonat bo'yicha yillik foiz stavkasi differensiallashgan yoki omonatni rasmiylashtirish usuliga bog'liq bo'lsa, har biri alohida ko'rsatiladi)	21 (yigirma bir) %
4. Omonat bo'yicha hisoblangan foizlarni kapitalizatsiyasi mavjudligi (hisoblangan foizni asosiy mablag'ga qo'shib qayta foiz hisoblash)	Mavjud emas
5. Omonatning muddati	25-oy
6. Omonatga qo'yiladigan mablag'ning eng kam miqdori (agar mavjud bo'lsa)	500 000 so'm
7. Omonat bo'yicha foizlarni to'lash davriyligi	Oyda bir marotaba
8. Omonatni rasmiylashtirish usuli (onlayn yoki bankka tashrif buyurish orqali)	Onlayn bank mobil ilovasi orqali yoki oflayn bankning filliallari orqali
9. Qo'shimcha mablag' kiritish imkoniyati	Dastlabki 6 oy davomida
10. Avtouzaytirish (omomat muddati tugaganda omonat muddatini bank tomonidan bir tomonlama uzaytirish)	Mavjud emas
11. Boshqa shartlar	Shartnoma va/yoki qonunchilikka ko'ra belgilanadi

**2-bo'lim. Boshqa muhim shartlar**

1. Omonatga qo'yilgan pul mablag'larini omonat muddati tugagunga qadar qisman yechib olish imkoniyatining mavjudligi	Mavjud emas
2. Omonat shartnomasini muddatidan oldin bekor qilish tartibi	Omonatchining arizasi yoki qonunchilikka ko'ra bekor qilinadi

**Omonat qo'yishga rozi bo'lishdan oldin diqqat bilan o'rganib chiqing!**

Siz omonatning shartlari, omonat bo'yicha foiz daromadlari va hisob-kitoblar tartibi to'g'risida, shuningdek huquqlaringiz va majburiyatlaringiz, Sizga tushunarsiz bo'lgan boshqa masalalar yuzasidan bankdan to'liq va batafsil ma'lumot olishga haqlisiz.

Agar Sizda shikoyatlar mavjud bo'lsa, u holda Siz murojaatingizni (telefon raqami ko'rsatiladi) raqamli telefonga yoki (bankning pochta manzili ko'rsatiladi) manzilga yoki (bankning elektron pochta manzili ko'rsatiladi) elektron manzilga jo'natishingiz mumkin.

**AXBOROT VARAQASINING TO'G'RILIGI  
VA HAQIQIYLIGI TASDIQLANADI.**

(bank mutaxassisining F.I.Sh. va lavozimi)

(to'ldirilgan sana)

**\* Mazkur varaqa omonat shartnomasi yoki omonat olish uchun buyurtmanoma o'rnini bosmaydi, aksincha turli banklarning omonat shartlarini taqqoslashga va kerakli tanlovni amalga oshirishga yordam beradi.**

\_\_\_\_\_ - sonli  
**MUDDATLI OMONAT SHARTNOMASI**

**Toshkent sh.**

«\_\_» \_\_\_\_\_

“**Davr bank**” XATB (keyingi o’rinlarda - “Bank”) nomidan Ustav asosida faoliyat yurituvchi Boshqaruv raisi A.A. Samadov, bir tomondan, va \_\_\_\_\_

(keyingi o’rinlarda - Omonatchi) ikkinchi tomondan, birgalikda “Taraflar”, alohida esa “Taraf” deb nomlanuvchilar, mazkur muddatli omonat shartnomasini (keyingi o’rinlarda “Shartnoma”) quyidagilar haqida tuzdilar:

**I. Shartnoma predmeti**

1.1. Shartnomaga muvofiq Bank Omonatchidan va/yoki uning nomiga kelgan pul summasini (keying o’rinlarda – Omonat) qabul qilib olish, ushbu shartnomada nazarda tutilgan shartlar asosida va tartibda Omonatni qaytarish va unga foizlar to’lash majburiyatini oladi.

**II. Omonat shartlari**

- 2.1. Omonatning valyutasi: so‘m.
- 2.2. Omonat bo‘yicha yillik foiz stavkasi: 21 %.
- 2.3. Omonat bo‘yicha hisoblangan foizlarni kapitalizatsiyasi: mavjud emas.
- 2.4. Omonat muddati: 25 oy.
- 2.5. Omonatga qo‘yiladigan mablag‘: \_\_\_\_\_ (so‘z bilan) so‘m.
- 2.6. Omonat bo‘yicha foizlar bir oyda bir marotaba to‘lab beriladi.
- 2.7. Omonat onlayn yoki oflayn rasmiylashtiriladi.
- 2.8. 6 oy ichida qo‘shimcha mablag‘ kiritish imkoniyati mavjud.
- 2.9. Omonatning maksimal summasi: cheklanmagan.
- 2.10. Omonat muddati tugaganda omonat muddati bank tomonidan bir tomonlama uzaytirilmaydi.
- 2.11. Omonatga qo‘yilgan pul mablag‘larini omonat muddati tugagunga qadar qisman yechib olish imkoniyati mavjud emas.
- 2.12. Omonat shartnomasini omonatchi tashabusi bilan muddatidan oldin bekor qilinganda, hisoblangan foizlar to‘liq bo‘lgan oylar uchun mos ravishda yillik 18,7% miqdorida to‘lab beriladi.
- 2.13. Omonatchining bank hisobidagi pul mablag‘lariga ta‘qiq qo‘yilgani tufayli ulardan foydalana olmagan davr uchun Bank tomonidan Omonatga foizlar hisoblanmaydi.
- 2.14. Omonat O‘zbekiston Respublikasining “Banklardagi omonatlarni himoya qilish kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonuniga muvofiq kafolatlangan.
- 2.15. Omonatchiga to‘lanadigan kompensatsiya summasi miqdori ikki yuz million so‘mga teng yoki undan kam bo‘lishi mumkin.
- 2.16. Kafolatlangan omonat bo‘yicha kompensatsiya summasi O‘zbekiston Respublikasining “Banklardagi omonatlarni himoya qilish kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonunida belgilangan tartibida to‘lab beriladi.

**III. Taraflarning huquq va majburiyatlari**

**3.1. Omonatchining huquqlari:**

- 3.1.2. omonat shartnomasi yuzasidan barcha zarur ma‘lumotlarni olish;
- 3.1.3. mazkur Shartnoma shartlari asosida va tartibda muddatli omonat shartnomasini tuzish.
- 3.1.2. Pul mablag‘larini omonat hisovarag‘iga qo‘yish;
- 3.1.4. qo‘shimcha mablag‘ kiritish;
- 3.1.3. omonatni qaytarib olish;
- 3.1.4. omonatga qo‘yilgan pul mablag‘larini omonat muddati tugagunga qadar qisman yechib olish;
- 3.1.5. Omonatni ham shaxsan, ham vakil orqali (qonunchilikda belgilangan tartibda rasmiylashtirilgan ishonchnoma bo‘yicha) tasarruf etish, agar O‘zbekiston Respublikasi amaldagi qonunchiligida boshqa holat ko‘zda tutilgan bo‘lmasa;

3.1.6. Muddatli bank omonati shartnomasi imzolanganiga qadar uning bir nusxasi bilan tanishib chiqish uchun o'zi bilan olish;

3.1.7. Bankning Internetdagi rasmiy veb-sayti ([www.davrbank.uz](http://www.davrbank.uz)) da Omonatlar va Tariflar to'g'risidagi axborot bilan muntazam tanishib borish.

### **3.2. Omonatchining majburiyatlari:**

3.2.1. Mazkur shartnoma shartlariga rioya qilish;

3.2.2. Bankka Omonatchi to'g'risida ishonchli va to'g'ri ma'lumotlarni taqdim etish;

3.2.3. hisobvarag'lar bo'yicha operatsiyalarni qat'iy ravishda ushbu Shartnomaga, O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga, O'zbekiston Respublikasi va boshqa vakolatli organlarning normativ hujjatlariga muvofiq amalga oshirish;

3.2.4. masofaviy bank xizmatlarini taqdim etish tizimi orqali hisobvarag'lar bo'yicha operatsiyalarni amalga oshirish maqsadida hisobvarag'larni ochish uchun to'liq va to'g'ri ma'lumotlarni taqdim qilish;

3.2.5. O'zining shaxsiy ma'lumotlarini ishonch raqamli qurilmaga kiritish vaqtida ularning saqlanishini ta'minlash, zararli dasturlar va ilovalardan, ishonch raqamli qurilmada himoyalangan birikmalardan foydalanmaslik;

3.2.6. Shartnoma shartlarini bajarish uchun zarur bo'lgan barcha ma'lumotlarni taqdim qilish;

3.2.7. hisobvarag'larga xatolik bilan kiritilgan va/yoki hisobvarag'lardan xatolik bilan yechib olingan mablag'lar aniqlangan bo'lsa, bu haqida har qanday mavjud usulda Bankga xabar berish;

3.2.8. xatolik bilan kelib tushgan pul mablag'larini o'z maqsadlari uchun ishlatmaslik hamda ularni Bankga darhol qaytarish uchun barcha choralarni ko'rish;

3.2.6. xatolik bilan kelib tushgan pul mablag'larini noqonuniy ushlab turish holatlarida, Bank O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida belgilangan choralarni ko'radi.

3.2.9. mazkur Shartnoma shartlari bajarilishiga ta'sir qila oladigan ma'lumotlar, Omonatchining ismi, familiyasi va otasining ismi, yashash manzili, kontakt ma'lumotlari, shaxsini tasdiqlovchi hujjat ma'lumotlari o'zgargan taqdirda 3 (uch) ish kuni ichida Bankni xabardor qilish;

3.2.10. O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi va mazkur Shartnomada ko'zda tutilgan boshqa majburiyatlarni bajarish.

### **3.3. Bankning huquqlari:**

3.3.1. qonunchilikka muvofiq tegishli davlat organlarining ijrosi ta'minlanishi majburiy bo'lgan hujjatlari kelib tushgan taqdirda Omonatchining e'tirozlariga qaramay, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan tartibda choralarni ko'rish, ya'ni pul mablag'larini bloklash, xatlash, pul mablag'larini aktspetsiz tartibda omonat hisobvarag'idan chiqarish, hisobvarag' bo'yicha operatsiyalarni to'xtatish va h.o, shu jumladan Omonatchi hisobvarag'lari bo'yicha pul mablag'lari xatolik bilan qabul (kirim) qilingan holatlari aniqlanganida, qaytarish uchun muddatli omonat hisobvarag'i bo'yicha hisoblangan va to'langan mukofotlarni aktseptsiz tartibda yechib olish;

3.3.2. Omonat bo'yicha foizlarni hisoblashda texnik xatolik aniqlangan hollarda Omonat shartlariga muvofiq Bank qayta hisoblash o'tkazishga haqlidir.

3.3.3. Bank yangiliklari, shuningdek, Omonatchining muddatli depozit hisobvarag'i bo'yicha amalga oshirilgan operatsiyalar to'g'risidagi ma'lumotlarni SMS ko'rinishida Ariza/So'rovda ko'rsatib o'tilgan Omonatchi mobil raqamiga yoki pochta xabari sifatida elektron manzilga yuborish.

3.3.4. Jinoyatchilik yo'li bilan olingan daromadlarni legallashtirish va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi harakat etish maqsadida, Bank Omonatchidan uning muddatli omonat hisobvarag'i bo'yicha amalga oshirilayotgan operatsiyalarni qonuniyligini tasdiqlovchi ma'lumot va hujjatlarni taqdim etilishini talab qilish.

3.3.5. Bank bilan Omonatchi o'rtasida imzolangan, amal qilish muddati tugamagan Muddatli bank omonati shartnomasi mavjud bo'lsa, bitta Omonatga (amaldagi Omonatga) yangi Muddatli bank omonati shartnomasi tuzishni rad etish

2.3.1. Bank, O'zbekiston Respublikasi amaldagi qonunchiligiga muvofiq, Omonatchini har tomonlama tekshirish bo'yicha tadbirlar o'tkazish, shu jumladan, Omonatchi (mijoz) bilan

ishbilarmonlik munosabatlariga kirishish to'g'risida qaror qabul qilish huquqini o'zida saqlab qoladi.

Bank, Omonatchi tomonidan Masofaviy aloqa kanallari xizmatlardan foydalangan holda bajarilgan operatsiyalarga gumonlar mavjud bo'lgan taqdirda, quyidagi huquqlarni o'zida saqlab qoladi:

1) Ushbu xizmatlarni taqdim etishni Omonatchi tomonidan o'tkazilgan amaliyotlarning qonuniyligi to'g'risida yozma tushuntirish berilgan vaqtgacha to'xtatib turish va/yoki /Masofaviy aloqa kanallari orqali/masofaviy turib xizmat ko'rsatishni rad etish;

2) Omonatchini turar joyi (pochta manzili) yoki Muddatli bank omonati shartnomasida ko'rsatilgan manzili bo'yicha, shu jumladan, Omonatchi tomonidan Masofaviy aloqa kanallari xizmatlardan foydalangan holda gumonli operatsiyalar amalga oshirilgani aniqlangan holatlarda o'rganishni amalga oshirish;

3.3.6. Ushbu xizmatlardan foydalanib gumonli operatsiyalar amalga oshirilgani uchun ularni taqdim etishni 3 (uch) ish kuni muddatiga to'xtatib turish.

#### **3.4. Bankning majburiyatlari:**

3.4.1. Omonatchining Bank hisobvarag'iga kiritilgan pul mablag'larini saqlashni ta'minlash;

3.4.2. Omonatchiga Bank hisobvarag'i ochish, Omonatchi foydasiga naqd pul shaklida va/yoki naqdsiz pul o'tkazmasi sifatida kiritilgan pul mablag'larini Bank hisobvarag'iga tushirib qabul qilish;

3.4.3. Omonat asosiy summasiga foizlarni O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki normativ-huquqiy hujjatlariga va mazkur Shartnoma shartlariga muvofiq hisoblash;

3.4.4. Mazkur shartnoma tuzilgan kunga belgilangan Omonat bo'yicha to'lanadigan foizlar miqdorini bir tomonlama o'zgartirmaslik;

3.4.5. Hisoblangan foizlarni mazkur Shartnomada belgilangan muddatlarda va miqdorda to'lash;

3.4.6. Omonat sirini saqlash va u bo'yicha ma'lumotlarni faqat qonunchilikda ko'zda tutilgan hollardagina taqdim etish;

3.4.7. O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi, Muddatli bank omonati shartnomasi va ushbu Ommaviy ofertada ko'zda tutilgan boshqa majburiyatlarni bajarish;

3.4.8. Muddatli bank omonati shartnomasi imzolangan kuni Omonatchiga yoki uning vakolatli vakiliga Muddatli bank omonati shartnomasining bitta asl nusxasini taqdim etish;

3.4.9. Muddatli omonat hisobvarag'idagi pul mablag'larini va hisoblangan foizlarni Omonatchiga mazkur Shartnomada belgilangan tartib va shartlarga muvofiq qaytarish;

3.4.10. Hisobvarag'dagi pul mablag'larining xavfsizligini va yaxlitligini ta'minlash. Hisobvarag'dagi mablag'larni xatlash yoki hisobvarag'lar bo'yicha operatsiyalarni to'xtatish O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida belgilangan holatlardagina amalga oshiriladi;

3.4.11. Bank Omonatchiga uning pul mablag'lari depoztga qabul qilinganligi to'g'risida yozma shaklda yoki masofaviy xizmat ko'rsatish tizimlari orqali elektron tarzda tasdiqlab beradi;

3.4.12. Bank tomonidan kreditlar/mikroqarzlar/lizing bo'yicha qarzdorliklarni so'ndirish uchun Omonatdagi pul mablag'lari Omonatchining topshirig'isiz hisobdan chiqarilganda, bu haqda keyingi ish kunidan kechiktirmasdan Omonatchiga u tomonidan belgilangan aloqa kanali orqali xabarnoma yuborish.

3.4.13. Bank tomonidan omonatchining omonat bo'yicha bank amaliyoti to'xtatilgan sanadan boshlab keyingi ish kunidan kechiktirmagan holda hisobvara q yoki omonat egasiga uning hisobvarag'iga xizmat ko'rsatish to'xtatilganligi va uning sabablari yuzasidan xabarnoma (ma'lumotnoma) yuborish.

#### **IV. Maxfiylik**

4.1. Bank O'zbekiston Respublikasining "Bank siri" to'g'risidagi Qonuni va O'zbekiston Respublikasining boshqa qonunchilik hujjatlariga muvofiq bank sirini tashkil etuvchi Omonatchi to'g'risidagi ma'lumotlar maxfiyligini va sir saqlanishini kafolatlaydi.

4.2. Bank sirini tashkil etuvchi ma'lumotlarni Bank Omonatchiga yoki uning vakolatli vakiliga uning (yozma ravishda yoki elektron ko'rinishda taqdim etilgan va Omonatchi ma'lumotlarini to'liq identifikatsiyalashtirganidan so'ng) so'roviga muvofiq taqdim etishi mumkin.

4.3. Bank sirini tashkil etuvchi Omonatchi to'g'risidagi ma'lumotlar uchinchi shaxslarga O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida belgilangan tartibda taqdim etiladi.

#### **V. Taraflarning javobgarligi**

5.1. Taraflar Shartnoma shartlarini bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik yuzasidan O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq javobgardirlar.

5.2. Masofaviy bank xizmatlarini taqdim etish tizimi orqali hisobvarag'lar bo'yicha operatsiyalarni amalga oshirish maqsadida hisobvarag'larni ochish uchun taqdim etilgan hujjatlar va ma'lumotlarni to'g'riligi uchun Omonatchi javobgar hisoblanadi.

5.3. Mazkur Shartnomaning shartlariga rozilik berib, Omonatchi u tomonidan joylashtirilgan pul mablag'lari qonuniy manba'ga egaligini hamda jinoiy faoliyatdan olingan daromadni qonuniylashtirish jarayoniga, terrorizmni va ommaviy qirg'in qurollarini tarqatish uchun moliyalashtirish jarayonlariga jalb qilinmaganligini kafolatlaydi.

5.4. Agar Omonatchi tomonidan muddatli depozit hisobvarag'idan foydalangan holda amalga oshirilgan shubhali operatsiyalar aniqlansa, qonunchilikda belgilanga tartibda Bank ushbu xizmatni to'xtatib turish yoki taqdim etmaslik huquqini o'zida saqlab qoladi.

#### **VI. Fors-major holatlar**

6.1. Taraflar mazkur Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini to'liq bajarmaganliklari va (yoki) lozim darajada bajarmaganliklari uchun, agar bu mazkur Shartnoma tuzilganidan keyin yuzaga kelgan va Taraflar mavjud choralalar bilan ularning oldini olishning imkoni bo'lmagan yengib bo'lmas kuch (fors-major) oqibatida sodir bo'lgan bo'lsa, javobgarlikdan ozod etiladilar.

6.2. Yengib bo'lmas kuch oqibati deganda quyidagilar tushuniladi: zilzila, suv toshqini, yong'in, boshqa tabiiy ofatlar, epidemiyalar, davlat organlarining mazkur Shartnoma shartlarini bajarishga to'sqinlik qiladigan qarorlari va harbiy harakatlar.

6.3. Ko'rsatilgan oqibatlar sodir bo'lgan vaqtda, yengib bo'lmas kuch ta'siriga ishora qiluvchi Taraf, bu haqda ikkinchi Tarafni darhol xabardor etishi lozim.

6.4. Agar ko'rsatilgan oqibatlar uch oydan ortiq davom etsa, Taraflar mazkur Shartnoma majburiyatlarini bajarishni ikkinchi Tarafni ogohlantirgan holda bir tomonlama to'xtatishga haqlidir. Bunday holda mazkur Shartnoma bajarilmagan qismi bo'yicha bekor qilinadi va Taraflar Shartnomaning bajarilgan hamda bajarilmagan qismlari bo'yicha yakuniy hisob-kitoblarni amalga oshiradilar.

#### **VII. Korrupsiyaga qarshi shartlar**

7.1 Ushbu Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishda Taraflar, har qanday noqonuniy ustunlik yoki boshqa imtiyozlarni olish maqsadida, ularning afillangan shaxslari, xodimlari yoki vakillari ushbu shaxslarning harakatlari yoki qarorlariga ta'sir qilish uchun, har qanday shaxslarga haq to'lamaydilar, to'lashni taklif qilmaydilar va hech qanday pul mablag'lari yoki qimmatbaho buyumlarni to'lashga yo'l qo'ymaydilar.

7.2 Ushbu Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishda Taraflar, ularning affillangan shaxslari, xodimlari yoki vakillari, amaldagi qonunchilikka muvofiq pora berish/olish, tijoratda pora evaziga og'dirib olish, shuningdek jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish to'g'risidagi qonunchilik talablarini va xalqaro hujjatlar talablarini buzadigan harakatlarni sodir etmaydilar.

7.3 Ushbu Shartnomaning Taraflardan har biri boshqa Tarafning xodimlarini biron-bir tarzda rag'batlantirishdan bosh tortadi, shu jumladan ularga pul summalari, sovg'alar, ularning nomiga ishlarni (xizmatlarni) beg'araz ravishda bajarish va boshqa usullar bilan, xodimni ma'lum qaramlikka qo'yib qo'yadigan va ushbu xodim tomonidan uni rag'batlantiruvchi tomonning foydasiga har qanday harakatlarni sodir etishga yo'naltirilgan rag'batlantirishdan bosh tortadi.

7.4 Agar biron-bir Taraf korrupsiyaga qarshi biror shart buzilgan yoki sodir bo'lishi mumkin bo'lgan gumon yuzaga kelgan taqdirdi, tegishli Tarafni yozma shaklda yoki og'zaki ravishda ishonch telefonlari orqali boshqa Tarafga xabar beradi.

7.5. Taraflar shartnoma tuzishda, shartnomaning amal qilish muddatida va ushbu muddat tugaganidan so'ng, shartnoma bilan bog'liq korrupsiyaviy harakatlarni sodir qilmaslikka kelishib oladilar.

### **VIII. Yakunlovchi qoidalar**

8.1. Ushbu Shartnoma Bank kassasiga tegishli mablag'lar topshirilgan yoki Omonat bank hisobvarag'iga naqd pulsiz shaklda tushgan summani qabul qilingan kuni tuzilgan deb hisoblanadi va Taraflar o'z majburiyatlarini to'liq bajarib bo'lgunicha amal qiladi.

8.2. Mazkur Muddatli depozit hisobvarag'ini yopish uchun Omonatchi ixtiyoriga ko'ra masofaviy bank xizmatlarini taqdim etish tizimidan foydalangan holda yoki O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq bekor qilinadi.

8.3. Taraflar o'rtasidagi nizolar muzokaralar yo'li bilan hal etiladi. Agar Taraflar kelishuvga erishmasa nizo qonunchilikda belgilangan tartibda sud orqali hal etiladi.

8.4. Taraflar sudgacha bo'lgan nizolarni talabnoma yuborish orqali hal etadi.

8.5. Shartnoma ikkita bir xil, teng yuridik kuchga ega nusxada o'zbek tilida tuzildi va imzolandi, bitta nusxasi Bank uchun, ikkinchisi - Omonatchi uchun.

### **IX. Taraflarning rekvizitlari va imzolari**

**“Bank”**

**“Davr bank” XATB**

**Yuridik manzili:** \_\_\_\_\_

**h/r:** \_\_\_\_\_

**Bank MFO:** \_\_\_\_\_, **STIR:** \_\_\_\_\_,

**IFUT:** \_\_\_\_\_,

**tel:** +998 71 207 40 40

[info@davrbank.uz](mailto:info@davrbank.uz)

**Vakolatli shaxs**

\_\_\_\_\_

**“Omonatchi”**

**F.I.SH.:** \_\_\_\_\_

**Manzili:** \_\_\_\_\_

**Shaxsini tasdiqlovchi hujjat ma'lumotlari:**

\_\_\_\_\_

**Tel:** \_\_\_\_\_

**Imzo:** \_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_

**O‘zbekiston Respublikasidagi omonatlarni kafolatlash tizimi to‘g‘risida  
AXBOROT**

1.	<b>“Davr bank” XATBda joylashtirilgan omonatlar kafolatlanishi</b>	Bankdagi omonatlar Omonatlarni kafolatlash agentligi tomonidan kafolatlanadi
2.	<b>Omonatlarni kafolatlash asoslari</b>	O‘zbekiston Respublikasining “Banklardagi omonatlarni himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonuni
3.	<b>Kafolatlash hodisasi</b>	Bankning tugatilishi (yopilishi)
4.	<b>Kafolatlanadigan omonatlar turi</b>	Talab qilib olinguncha saqlanadigan omonatlar, shu jumladan bank kartalaridagi mablag‘lar, muddatli va jang‘arma omonatlar, shuningdek mazkur omonatlar bo‘yicha hisoblangan foizlar
5.	<b>Kompensatsiya miqdori</b>	Bank tugatilganda har bir omonatchiga, omonat bo‘yicha hisoblangan foizlarni inobatga olgan holda, jami to‘lanadigan kompensatsiya miqdori 200 000 000 so‘mdan oshmaydi
6.	<b>Bir bankda omonatchining bir nechta omonatlari mavjud bo‘lgan taqdirda to‘lanadigan kompensatsiya miqdori</b>	Omonatning miqdori va valyutasidan qat‘i nazar omonatchining ushbu bankdagi va uning filiallaridagi barcha omonatlari hisoblangan foizlar bilan jamlanadi va ular bo‘yicha to‘lanadigan kompensatsiyaning umumiy miqdori 200 000 000 so‘mdan oshmaydi
7.	<b>Bir nechta bank tugatilgan holda kompensatsiya miqdori</b>	Bir nechta bank tugatilgan taqdirda, mazkur banklarda omonatlari mavjud bo‘lgan omonatchi har bir bank bo‘yicha alohida tartibda 200 000 000 so‘mdan oshmagan miqdorda kompensatsiya olish huquqiga ega
8.	<b>Kompensatsiya to‘lash muddati</b>	Bankni tugatish (yopish) to‘g‘risida qaror qabul qilingan sanadan e‘tiboran 20 ish kuni mobaynida: 2026-yil 1 yanvardan boshlab — 15 ish kuni; 2027-yil 1 yanvardan boshlab — 7 ish kuni.
9.	<b>Kompensatsiya to‘lanadigan valyuta</b>	Chet el valyutasida qo‘yilgan omonatlar bo‘yicha kompensatsiya bank tugatilgan (yopilgan) sanadagi O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bank kursi bo‘yicha milliy valyutada (so‘mda) to‘lanadi
10.	<b>Bog‘lanish uchun ma‘lumotlar</b>	<i>Omonatlarni kafolatlash agentligining: manzili: Toshkent shahar, Yunusobod tumani, Amir Temur ko‘chasi 107B, telefon raqamlari: (998 71) 207-30-50, el.pochta manzili: info@dga.uz, veb-sayt manzili: www.dga.uz</i>

**Omonatchi xabardor qilindi:**

**Sana va imzo:**